

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA FOYDALANISH

Ozoda Abdijabborova Zoxidjon qizi
Haydarova Gulchehra Mahmudjon qizi
Ahmadjonova Xusnida Xotamquli qizi
Farg'ona Davlat universiteti 2-kurs magistrantlari
abdijabborova.ozosh@mail.ru

Annotatsiya:

Quyidagi tezis pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish qay qarajada muhimligini tadqiq qiladi.

Kalit so'zlar:

Kadrlar, pedagog, innovatsion texnologiyalar, kasbiy mahorat, uzluksiz ta'lim, intellectual salohiyat, strategik taraqqiyot

Ma'lumki, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "...ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash» vazifalari belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda. Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni va bo'lajak pedagoglarni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu esa o'z navbatida talabalarning ilmiy bilim darajasini va faolligini kengaytirishni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, mantiqiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan interfaol ta'lim olishlariga ko'mak beruvchi innovatsion usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi.

Pedagogning dars berish jarayonidagi roli ancha murakkab bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy va zamonaviy jihatlari mavjud. oldingi davrlarda o'qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma'naviy, siyosiy va amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi. Yuqoridagi keltirilgan texnologiyalar o'qitishda o'zlashtirishni yuqori ko'tarish, o'quv jarayonida qiziqitirishni, o'quv materialini tushunishni yaxshilashni, funksional savodxonlikni shakllantirishni, loyihali savodxonlikni, nazariy tafakkurni, ekologik va iqtisodiy tafakkurni, kommunikativlikni, ijtimoiy faollikni, fuqarolik ongini, o'z-o'zini anglash va boshqa vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan edi.

Hozirda boshqa faoliyat sohalari, jumladan, ishlab chiqarish rivojlanishining innovatsion yo'liga o'tgach, ta'lim sohasi ularga faqat yetakchilarni tayyorlash funksiyasini bajardi. Lekin aslida esa boshqacha ko'rinish ko'zga tashlanadi. Ilgari jamiyat uchun uncha ko'p bo'lmagan va mustaqil shakllangan innovatorlar yetarli edi.

Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim texnologiyalari uchun innovatorlar faqat pedagoglar edi va ularning innovatsiyalari o'quvchilarda zaruriy sifatlarni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lib, innovatsion tafakkur va qobiliyatni innovatsion faoliyatiga yo'naltirishga e'tibor qaratilmagan.

Bildirilgan fikrlar "innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "innovatsion ta'lim" tushunchalarini quyidagi tarzda ajratib, alohida qarab chiqishni talab etadi:

1. innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlari – bu barcha ta'lim texnologiyalari, yaratuvchi va ularni rivojlantiruvchi pedagog innovatsion faoliyatining natijasi hisoblanadi.

2. innovatsion ta'lim – bu shunday innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlariki, unda pedagog innovatsion faoliyati natijasi bo'lib, o'qitilayotganlar innovatsion g'oyalarini yaratuvchisi (generatsiya) xisoblanadi;

3. ishlab chiqarishning monoinnovatsionligi (mutaxassislar innovatsiyasi) ta'limning monoinnovatsion - (pedagog innovatsiyasi) emasligiga to'g'ri keladi, uning innovatsiyaligi, pedagog innovatsiyaligi, ularning oqibati, o'qitilayotganlarning innovatsiyasidir.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati harakteri o'zgarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. file:///C:/Users/Windows%2010%20x64%202019/Downloads/talimda_innovatsion_uslublarni_ishlab_chiqish_va_joriy_etish.pdf
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. 111 b.